

YOSHLAR TARBIIYASIDA GLOBALLASHUV VA AXBOROT XAVFSIZLIGI
JARAYONI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qodirov Jahongir Neymat o'gli
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayoni, ulardagi Vatanparvarlik hissining mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan. Bugungi yaratilgan sharoit va keng imkoniyatlar yoshlarning har tomonlama yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishlariga qaratilganligi, ularning birgina maqsadi shu ona-Vatan tinchligi va ososiyshitaligig uchun o'qib izlanishlari bo'lishi sabablari haqida fikr yuritilga.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, globallashuv, demokratiya, islohot, ta'sir, ta'lim, tarbiya, tinchlik, jamiyat, inson, kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy, individ, kommunikatsiya*

**ПРОЦЕСС ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ
ПРОБЛЕМА**

Қодиров Жахонгир Неймат ўғли
Магистрант Азиатского международного университета

Аннотация: Условиях современной глобализации в статье подробно рассмотрен процесс образования и воспитания молодежи, содержание и сущность ее чувства патриотизма. Давайте задумаемся о том, почему сегодняшние условия и широкие возможности направлены на то, чтобы молодые люди становились зрелыми и квалифицированными специалистами во всех аспектах, а их единственная цель – учиться во имя мира и спокойствия этой Родины.

Ключевые слова: патриотизм, глобализация, демократия, реформа, воздействие, образование, воспитание, мир, общество, человеческий, причинный, структурный, функциональный, пространственный, индивидуальный, коммуникативный.

**THE PROCESS OF GLOBALIZATION AND INFORMATION SECURITY IN
YOUTH EDUCATION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM**

Abstract: In today's globalization, the process of education and upbringing of young people, the content and essence of their sense of patriotism are detailed in the article. Let's think about the reasons why today's conditions and wide opportunities are

aimed at young people becoming mature and qualified specialists in all aspects, and their only goal is to study for the sake of the peace and tranquility of this Motherland.

Keywords: patriotism, globalization, democracy, reform, impact, education, upbringing, peace, society, human, causal, structural, functional, spatial, individual, communication

Kirish: Jamiyatni axborotlashtirish ishlab chiqarishning yuqori darajasidagi jarayon bo‘lib, axborotdan jamoat resursi sifatida foydalaniladi.

Axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo‘lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o‘sishi va milliy xavfsizligini ta‘min etadi. Ma‘lumki, globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o‘z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta‘minlashga keng imkoniyatlar beradi.

Vaqt o‘tishi bilan globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo‘la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o‘sgan bog‘liqligi shuni ko‘rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea – hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya‘ni an‘anaviy tahdidlar bilan o‘zaro qo‘shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e‘tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma‘lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali “ezgulikka” xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo‘lgach, uning o‘rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston bilan bog‘liq jarayonlarda uchratish mumkin.

Mustaqil mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o'laroq, jamiyatimizning barcha jabhalarida munosib yutuqlar qo'lga kiritilayapti. Aholining tinch, osuda va farovon hayot kechirishini ta'minlash ana shu sa'y-harakatlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Tinchlik, osoyishtalik avvalo oiladan, mahalladan boshlanadi. Shu ma'noda, yurtimizdagi har bir aholi yashash joylarida ichki ishlar xodimlari, uchastka nozirlari, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida fuqarolarni ogohlikka da'vat etuvchi tadbirlar o'tkazib kelinayotir.

Bugun O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Bugun yoshlarni o'qitish, ularga kasb sirlarini o'rgatish bilan birga ularda sadoat va vatanparlik hissini rivojlantirish ham ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi.

Tahlillar: Inson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.G.Anan'ev odamning ular bilan har xil turdagi va ko'rinishdagi kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kiddab o'tganlar.

Birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli «Homo Sapiens» sifatida o'rganiladi[1].

Ikkinchidan, tarixiy jarayonning ham obyekt, ham subyekt tariqasida shaxs tadqiq etiladi.

Uchinchidan, individ muayyan ko'lamda o'zgaruvchan, taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi. Insonni jamiyat ishlab shiqarishining yetakchi tarkibi, bilish, kommunikatsiya va boshqaruv subyekt, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Inson va uning borliq bilan ko'p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo'lishi mumkin:

- tabiatning biotik va abiotik omillari - inson;
- jamiyat va umumtarixiy taraqqiyoti - inson;
- inson - texnika;
- inson - madaniyat;
- inson va jamiyat - er va fazo

Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu

vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan.

Tarixdan ma‘lumki, birorta millat boshqa bir millatni tahqirlamoqchi yoki oyoqosti qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, uning vatanini bosib olib, vayron qilgan yoki vatanidan quvib chiqargan. O‘z vatanining dushmanlar qo‘lida qolganini ko‘rgan millat uchun bundan ortiq xo‘rlik va azob bo‘lmasa kerak. Zero, Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir. Shuning uchun ham dinimiz ta‘limotida ona Vatan himoyasi, millat farovonligi haqida qayg‘urish Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadislarida ham keng yoritilgan. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hazrati Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu bilan Madinai munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida orqalariga o‘girilib, ya‘ni Makkai mukarramaga qarab: «Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hecham o‘z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo‘lar edim», – deganlar.

Xalqning boshiga og‘ir kun kelganda jonini saqlash uchun vatanni tashlab qochish insoniylikka to‘g‘ri kelmaydi. Xalqimizda «o‘zga yurtda shoh bo‘lganingcha o‘z yurtida gado bo‘l», degan hikmatli so‘z ham bor. O‘z huzur-halovatini o‘ylab, o‘zgalarni unutgan kishi hech qachon ona Vataniga, xalqiga nisbatan sadoqatli bo‘lolmaydi.

Vatanni turli g‘arazli oqimlar va yovuz kuchlardan himoya qilish yo‘lida diniy ekstremizm va uning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash borasida olib borilgan tezkor-profilaktik tadbirlar o‘z samarasini berib, sezilarli darajada ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi.

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma‘no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi.

Vatan manfaati, qadr-qimmat, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg‘usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha yuksak bo‘ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo‘lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o‘z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo‘lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug‘ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada Vatanimiz erishayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og‘ir kunlarida uning uchun qayg‘urish, o‘z yurti bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g‘ishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm-fan va san’atdagi yutuqlarini, moddiy va ma‘naviy boyliklarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash bularning barchasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuygʻusini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson oʻz yurtini qanday boʻlsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon boʻladi:

- 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash;
- 2) eʼtiqod – mazkur qadriyatlar toʻgʻrisida olgan bilimlarini eʼtiqodga aylantirish;
- 3) harakat – bu eʼtiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bogʻliq.

Vatanparvarlik maʼlum va mashhur tamoyil boʻlib, u insonning oʻz Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga boʻlgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydigan masala hisoblanadi[3].

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bogʻliq.

Bu tamoyil xayoliy tuygʻuga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh insonlarga boʻlgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar majmuidir.

Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud maʼnaviy–axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuygʻusini yaratmaydi, balki, uni tayyor holda qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuygʻudir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va maʼnaviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon boʻlishi hisoblanadi. Zero, ular negizida otabobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur boʻlsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabi ezgu gʻoyalari yotadi.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuygʻusini tarbiyalash, ularni Vatan maʼnosini teran anglab yetishga oʻrgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish maʼnaviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Vatan mustaqilligini taʼminlashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, alohida oʻrin egallaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir.

Milliy vatanparvarlik gʻoyalari bilan sugʻorilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash milliy oʻzlikni anglashning asosiy omili boʻlib hisoblanadi. Shu bois, Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart.

Zero, vatanparvarlik ijtimoiy hayotimizning asosiy zarurati hisoblanadi, chunki usiz bunyodkorlik ham, taraqqiyot ham boʻlmaydi.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmogʻi hamda oʻzida yaxlit bir tizimni mujassam etmogʻi lozim. Bu

tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

Xulosa: Yoshlarga har sohada o'zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g'oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo'g'inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg'ayadi, o'sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o'rni beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo'lgan muhabbat, hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so'zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma'naviy yuksalishiga zamin yasaydi. Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o'z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog'ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma'naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi.

Xususan, Shiroq, To'maris, Alpomishlarning jasoratlari milliy qadriyatlarimizning, an'alarimizning, asrlar osha bizga yetib kelgan urf-odatlarimizning saqlanib, bardavom bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining barq urishida ta'lim va tarbiyaning uzviyligi muhim o'rin tutadi. Bunda, oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oliy o'quv yurtlari faoliyatida uzviylik tamoyilining tatbiq etilishi vatanparvarlik tuyg'usining yanada takomillashuviga olib keladi.

Vatanga muhabbat tuyg'usi – bu jamiyatdagi ma'naviy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi o'ziga xos kalitdir. Zero, insoniylikning eng muhim fazilati kishining Vatanga bo'lgan muhabbati bilan belgilanadi.

Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqod va muhabbatning in'ikosidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga e'tibor kuchaytirildi. Yurtimizda amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz egalarini Vatanga, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, har bir oilada o'g'il farzand tug'ilganda ota-ona bilan bir qatorda yurt – Vatan ham suyunib, shodu xurram bo'lar ekan. Chunki o'g'il farzand nafaqat ota-onasi, oilasini, balki butun xalqini, Vatanini himoya qiladigan o'g'lon hisoblanadi. Yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda, mamlakatimiz hududini himoya qilishda harbiy xizmatchilarning xizmatlari beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g‘urur kabi g‘oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o‘zligini anglashga erishishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E.G‘. —Umumiy psixologiyal. T., 2010.
2. Ivanov P.I., Zufarova M. —Umumiy psixologiyal, O_z FJ., 2008.
3. Haydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiyal. T.: —Fan va texnologiyalarl markazining bosmaxonasi. J 2009.
4. Goziev E.G_. Ontogenez psixologiyasi. T.Noshir, 2010.
5. Do‘smuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbaeva Sh.T. —Yosh va pedagogik psixologiyal. T.: TDPU, 2013.
6. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi.T, 2006. 8.G‘oziyev E.G‘. —Pedagogik psixologiyal. T., 2004.
7. Z.S.Elov. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-29
8. J.Qodirov., Z.Elov. Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda globallashuv jarayonining ta’siri. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 47-52
9. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. 2024. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 47 (47)
10. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. 2023. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 43 (43)
11. З.Элов. Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ–девиант хулқатворнинг шакли сифатида. 2023. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 40 (40)
12. Z.Elov. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning ijtimoiy psixologik sabablari. 2023. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 34 (34)